O’zbekiston – Ozarbayjon: ilmiy hamkorlik kengaymoqda

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi prezidenti Arif Mamed o’g’li Gashimov tashrif buyurdi. Mehmonni O’zR FA prezidenti B.Yuldashev, vitse-prezidentlar S.Mirzayev, B.Abduxalimov hamda akademik S.Baxramov kutib oldi.

Uchrashuvda ikki davlat Fanlar akademiyalari o’rtasidagi hamkorlik aloqalari, ularni kengaytirish, yanada rivojlantirish va istiqboldagi yo’nalishlar muhokama qilindi.

Uchrashuv so’nggida ikki davlat Fanlar akademiyalari o’rtasida ilmiy hamkorlik to’g’risida Anglashuv Memondumi imzolandi.

Unga ko’ra, ikki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo’lgan, o’zaro manfaatli va ilmiy, ilmiy-texnik muammolar bo’yicha qo’shma tadqiqotlar olib borish, qo’shma ilmiy konferentsiyalar, sipmpoziumlar, seminar va ishchi uchrashuvlarni tashkil etish, ilmiy kadrar tayyorlashda ko’maklashish, ilmiy ma’lumotlar, ilmiy nashr va publikatsiyalar almashinuvi hamda o’zaro kelishilgan boshqa sohalarda hamkorlik qilish nazarda tutilgan.